




# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 3448,2 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 3431,4 mlrd.so'mni (105,7 foiz), o'rmon xo'jaligida 8,7 mlrd. so'mni (110,6 foiz), baliq xo'jaligida 8,1 mlrd. so'mni (111,2 foiz) tashkil qildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Chust (108,7 foiz), Yangiqo'rg'on (108,4 foiz), Norin (103,4 foiz), Uychi (106,8 foiz), Kosonsoy (106,3 foiz), Namangan (105,8 foiz), Namangan shaxri (105,4 foiz), Pop (105,3 foiz), Uchqo'rg'on (104,4 foiz), To'raqo'rg'on (104,2 foiz), Mingbuloq (103,7 foiz), Chortoq (103,0 foiz), Norin (102,5 foiz) tumanlarda kuzatildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Yangiqo'rg'on tumanining ulushi 17,2 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Namangan tumani esa 11,3 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinni egalladi. Eng kam ulush Mingbuloq (5,2 foiz) va Kosonsoy (4,5 foiz) tumanlarida qayd etildi.

### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 104,7 foizni, chorvachilik mahsulotlari 107,5 foizni tashkil qildi.

### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmning 72,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 1,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

### Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2130,2 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 62,7 foizni tashkil qildi.



**Hosil yig'imi.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 414,2 ming tonna jami don, shundan 372,2 ming tonna boshoqli don ekinlari ishlab chiqarilib, shu jumladan 371,9 ming tonnasini bug'doy tashkil qildi. 206,4 ming tonna kartoshka etishtirildi (2017 yilga nisbatan 7,9 foizga ko'p), 547,9 ming tonna sabzavot (8,1 foizga ko'p) yig'ib olindi, 60,1 ming tonna poliz ekinlari (5,7 foizga ko'p), 181,7 ming tonna meva va rezavorlar (8,5 foizga ko'p) va 96,8 ming tonna uzum (9,1 foizga ko'p) etishtirildi.

## Chorvachilik




2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1268,4 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 107,5 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarininzg ulushi 37,3 foizni tashkil etdi. 2018 yilning 1 oktyabr holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,4 foizga (jami 667,1 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 103,6 foizga (221,0 ming bosh), qo'y va echkilar 103,4 foizga (735,6 ming bosh), otlar 95,5 foizga (6361 bosh), parrandalar 116,6 foizga (4700 ming boshga) ko'paydi.


2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda tirik vazn hisobida 111,4 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 5,6 foizga ko'p), 537,6 ming tonna sut (7,1 foizga ko'p), 372,8 mln. dona tuxum (14,7 foizga ko'p), 1,6 ming tonna jun (3,3 foizga ko'p), 0,5 ming tonna asal (29,9 foizga ko'p), 1,7 ming tonna baliq (13,3 foizga ko'p), 1498.5 tonna pilla (2,5 marta ko'p) ishlab chiqarildi.

### Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik baliqchilik mahsulotlari hududlar kesimida


Go'sht (tirik vaznda)




Sut(tonna)



### Tuxum (ming dona)




### Baliq (tonna)



## Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 667,1 ming boshga, shu jumladan sigirlar 221,0 ming boshga, qo'y va echkilar 735,6 ming boshga, parrandalar 4699,7 ming boshga yetdi. 2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 15,7 ming boshga (2,4 foizga), shu jumladan sigirlar 7,8 ming boshga (3,6 foizga), qo'y va echkilar 24,0 ming boshga (3,4 foizga), parrandalar 667,7 ming boshga (16,6 foizga) ko'paydi.


## Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi




2018 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 3,4 foizi fermer xojaliklari, 96,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklari, 0,3 foizi qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 3,6 foizi fermer xojaliklariga, 96,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 0,3 foizi qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 43,9 foizi fermer xojaliklariga, 38,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 17,5 foizi qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

## Qoramol va parrandalar bosh soni hududlar kesimida 2018 yil 1 oktyabr holatiga


### Yirik shoxli qoramollar (*bosh*)




### Shu jumladan sigirlar (*bosh*)



### Qo'y va echkilar (*bosh*)



### Parrandalar (*ming.bosh*)




## Fermer xo'jaliklarida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish

2018 yil 1 oktyabr xolatiga 9866 ta fermer xo'jaliklari faoliyat yuritib ular tomonidan yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 903,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 26,6 foizni tashkil etdi.

**Hosil yig'imi.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida fermer xo'jaliklar tomonidan 331,5 ming tonna jami don, shundan 319,0 ming tonna boshqli don ekinlari ishlab chiqarilib, shu jumladan 318,6 ming tonnasi bug'doy, 33,4 ming tonna kartoshka (2017 yilga nisbatan 6,7 foizga ko'p), 89,8 ming tonna sabzavot (4,8 foizga kam) yig'ib olindi, 19,3 ming tonna poliz ekinlari (3,7 foizga ko'p), 53,8 ming tonna meva va rezavorlar (6,4 foizga ko'p) va 31,1 ming tonna uzum (7,9 foizga ko'p) etishtirildi.

2018 yilning 1 oktyabr holatiga fermer xo'jaliklarida 22,6 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 8,0 ming bosh sigir, 25,2 ming bosh qo'y va echkilar, 389 bosh ot, 2064,1 ming bosh parrandalar mavjud. 2017 yilning 1 oktyabr holatiga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 3,3 foizga, shu jumladan sigirlar 4,8 foizga, qo'y va echkilar 5,1 foizga kamaydi, parrandalar soni esa 31,8 foizga ko'paydi.



■ 2017 y

■ 2018 y

**2018 yilning yanvar-sentyabr oylari davomida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

	yanvar- sentyabr				O‘shish sur‘ati, foizda
	2017 yil		2018 yil		
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	Ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Jami don	363082	79,3	331493	80,0	91,3
shu jumladan:					
boshhoqli don	350452	89,3	319002	85,7	91,0
Kartoshka	31323	16,4	33411	16,2	106,7
Sabzavot	94366	18,6	89827	16,4	95,2
Poliz	18603	32,7	19288	32,1	103,7
Meva va rezavorlar	50576	30,2	53807	29,6	106,4
Uzum	28826	32,5	31098	32,1	107,9
Go‘sh, <i>tirik vaznda</i>	2606	2,5	2726	2,4	104,6
Sut	9349	3,4	8534	2,9	91,3
Tuxum, <i>mln. Dona</i>	111,7	34,4	137,7	36,9	123,3
Jun, <i>tonna</i>	44	2,9	47	3,0	106,8
Baliq, <i>tonna</i>	795,7	52,5	973,1	56,7	122,3

Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 227-84-82
- 227-84-83